

ABDULHAMID CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA ERK VA OZODLIK G‘OYASI

Ilmiy rahbr: Abdullayeva Gulnoza

Muallif: Sherqo‘ziyeva Muhayyo Kamoliddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida erk va ozodlik g‘oyasining badiiy ifodalanishi tahlil qilingan. Shoirning “Go‘zal” va “Xalq” she‘rlari misolida ozodlik, milliy uyg‘onish, xalq birligi hamda ma‘rifatparvarlik g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, she‘rlarda qo‘llangan ayrim badiiy san‘atlar tahlil qilinib, ularning asar mazmunini ochishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, erk, ozodlik, jadidchilik, xalq, she‘riyat, badiiy san‘at, g‘oya.

Abstract: This article analyzes the artistic expression of the ideas of freedom and liberty in the poetry of Abdulhamid Cholpon. Using the poems “Go‘zal” (“The Beautiful One”) and “Xalq” (“The People”) as examples, the study explores the themes of freedom, national awakening, unity of the people, and enlightenment. In addition, several literary devices employed in these poems are examined, and their role in revealing the content and meaning of the works is demonstrated

Keywords: Cholpon, freedom, liberty, Jadidism, people, poetry, literary devices, idea.

Erk va ozodlik insonning qo‘lidadir . Har bir insonning erki bor ,biroq ozodlikka erishish uchun biroz qiyin masala. Ozodlikka erishish uchun ,avvalo , bilim va eng muhimi birdamlik kerak bo‘ladi . Ozodlik va erkni anglab , unga yetishishni istaydiganlar insonlar tarixda juda ham ko‘p bo‘lgan , ana shunday erk , ozodlik uchun jonini baxshida etadigan ziyoli oila tarbiyalangan shoir va jadid Abdulhamid Cho‘lpondir

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati boshlanadi. Jadidlarning yagona maqsadi xalqni bilimli qilish, ozodlikka erishish edi , ular bu yo‘lda maktab , madrasalar ochishadi , turli xil asarlar she‘rlar yozishadi. Shu harakatlari uchun Sobiq hokimiyati jadidlarimizga ko‘p zulm va tazyiqlar o‘tkazishadi . Jadidlar esa aslo bo‘yin egishmaydi . Ular ozodlik va erkinlik g‘oyalarini o‘z asarlarida , she‘rlarida yashirin g‘oya , mazmun qilib olishadi. Cho‘lpon ham bir qator she‘rlar yozadi .Ularning ba‘zilari hozirgacha juda mashhur .Cho‘lpon she‘rlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning eng mashhur she‘rlaridan biri " Go‘zal " :

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen ,
Ul yulduz uyalib , boshini bukub ,
Aytadir : men uni tushda ko‘ramen

Tushimda ko‘ramen - shunchalar go‘zal ,
Bizdan - da go‘zaldir , oydanda go‘za

Yuqoridagi parchada Cho‘lpon oyga , yulduzga murojaat qilib , kimni so‘raydi . Go‘zal yornimi, ozodliknimi yoki baxtnimi ? Cho‘lponning bu she‘rida esa xalqning boshiga tushgan musibatlarni to‘liq , erkin ifoda eta olmaslik kabi muammolarni hisobga olgan holda , go‘zal yor orqali ozodlik g‘oyasi singdirilgan . Bu she‘rda ko‘plab badiiy san‘atlar faol qo‘llaniladi . Parchaning boshidayoq " Ul yulduz uyalib boshini bukub , Aytadir : men uni tushda ko‘ramen " satrini o‘zidayoq tashbeh va tashxis san‘atlari yaqqol namoyon bo‘ladi , ya‘ni yulduzning uyalishi , shoirning savoliga javobi berishi orqali tashxis san‘ati yuzaga chiqqan. She‘r boshdan oyoq tashxis san‘atiga asoslangan . Negaki , shoir oydan, yulduzdan ,shamoldan , quyoshdan savoliga javob so‘raydi . Yana bir misol ,
“Ertadan shamoli sochlarin yoyib, Yonimda o‘tganda so‘rab ko‘raman” misrasida ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek , “tushimda ko‘ramen” so‘zining qayta takrorlanishi takrir san‘atiga namuna bo‘la oladi.

Men yo‘qsil, na bo‘lib uni suyibmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yibmen,
Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

So‘nggi misrada shoir o‘zini yo‘qsilga taqqoslaydi. U o‘zini kambag‘al , yo‘qsil , yorni esa go‘zal qiz sifatida tasvirlaydiki, ko‘rinmagan bo‘lsada , tazod san‘atini yuzaga chiqaradi . Shoir uning uchun yongan , kuygan , lekin u yor kim ? Kundan ham , oydan ham go‘zal yor , ya‘ni shoir ming sevgani bilan yor dunyodagi eng go‘zaldir . Yuqorida aslida she‘rda go‘zal yor o‘z ma‘noda qo‘llanganmi yoki u baxt , ozodlikmi degan savolga qaytsak , shoir ozodlikka erishish uchun orzu qiladi , shu orzuga yetishish uchun yonib , kuyib harakat qiladi , biroq ozodlik qay darajada oliy baxt , ne‘mat . Unga yetishish esa qiyinligini ko‘rsatadi . Unga erishish yo‘li o‘g‘ir ekanligini ochib bergan.

Shoirning keyingi she‘ri " Xalq " dir
Xalq dengizdir, xalq:to‘lqindir, xalq kuchdir,

Shoir bu she‘r orqali yoshlarga xalqning kuchini , agar xalq birlashsa , maqsadi bir bolsa nimalarga qodir ekanligini uqtirgan. Shoir bu she‘rda tashbeh san‘atidan mukammal foydalanadi . U xalqni dengizga ,to‘lqinga , olovga qiyoslaydi:

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...
Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,

Ikkinchi satrda esa qo'zg'alsa , qo'zg'olon ko'tarsa nimalarga qodir ekanligini namoyon bo'lgan .

Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,
O'z yurtini har narsaga to'q etar...
Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

She'rning so'nggi misrasida Cho'lponning maqsadi , g'oyasi ko'zga tashlanadi . Yurtni , mamlakatni yo'qlikdan , kambag'allikdan olib chiqish faqatgina xalqqa bog'liq . Insonlar ahil , birdam , bilimli bo'lsagina xalq barcha muammolarni yengib o'tadi . Yurtga kelgan baloni bartaraf etish uchun kuchni xalq ichidan olish mumkinligini ko'rsatib bergan. Cho'lponning bu she'ri azal - azaldan xalqlar orasidagi urush , janjallarning asl sababini keltirib o'tadi . Yaqin tariximizga nazar soladigan bo'lsak , uch xonlik davridagi qoloqliklar , ochlik kabi muammoli masalalarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining birdam bo'lmaganliklari, kim o'zarga o'tish uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilganliklari , Rossiya bu vaziyatdan oqilona foydalanib, uchala xonlikni ham egallab olgani juda ham achinarli holat. Bu holatga avval ham guvoh bo'lgan xalqimiz XX asr boshlarida ham yana shu muammoga giriftor bo'lishadi . Xalqimizda savodli insonlar kam sonli .Shu sababli Cho'lpon aynan shu davrda xalqni savodli qilishga harakat qilib , uni she'rlarida mujassamlashtiradi. Uning “Xalq” she'ri chinakam ozodlikka erishish uchun xalqning birdamlik sari chorlashga xizmat qiladigan kichik hajmli she'rdir

Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida erk va ozodlik g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Shoir o'z she'rlarida xalqni ilm-ma'rifatga, birlik va hamjihatlikka chorlaydi hamda ozodlikka erishish yo'llarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Xususan, “Go'zal” she'rida ozodlik g'oyasi ramziy ma'noda tasvirlangan bo'lsa, “Xalq” she'rida xalqning qudrati va birdamligi ulug'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
2. <https://tafakkur.net/xalq/abdulhamid-cholpon.uz>
3. <https://tafakkur.net/gozal/abdulhamid-cholpon.uz>
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2005. Cho'lpon haqidagi maqolalar